

Sun'iy Intelлектning Logistika Sohasida Qo'llanilishi

Giyazova Nozima Bayazovna¹, Abdurahmonova Nigora Furqatovna²

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining logistika sohasidagi samaradorligini tahlil qiladi. Logistika tarmog'idagi jarayonlar, xususan, tovarlar oqimi, ombor boshqaruvi, yuk tashish va ta'minot zanjirini optimallashtirishda SI texnologiyalarining ahamiyati katta Sun'iy intellekt logistika sohasida xarajatlarni qisqartirish, yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni shaxsiylashtirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash mumkin bo'lgan logistikaning yo'nalishlari va ulardan olinishi mumkin bo'lgan samara hamda bu borada AQSH nig Amazon kompaniyasi tajribasi o'rganiladi.

Kalit so'zi: Sun'iy intellekt(AI), optimallashtirish, infratuzilma, dvigatel, sensir, individual, VAPR, websayt, treyler, integratsiyalashuvi, prognoz, Sequoia

Sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda inson faoliyatining turli jabhalarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, transport va logistika sohalarida bu texnologiyalar real natijalar bermoqda. Yo'llar, yuk tashish, shaharlararo va xalqaro logistika tizimlari, yuklarning kuzatuvi, xavfsizlik va samaradorlikni oshirish kabi muhim jihatlarida sun'iy intellekt asosidagi tizimlar keng joriy qilinmoqda. Bu esa butun logistika zanjirining optimallashtirishiga olib kelmoqda.

Transport va logistika o'z ichiga murakkab jarayonlar majmuasini oladi. Yuk tashish, yetkazib berish va yo'nalishlarni rejalashtirish kabi bosqichlar sun'iy intellekt yordamisiz ko'plab xatolik va kechikishlarga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt algoritmlari esa ushbu jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va eng optimal yo'lni tanlash imkonini beradi. Bu esa vaqtni tejaydi, xarajatlarni kamaytiradi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

AI tizimlari yo'nalishlarni avtomatik rejalashtirib, tirbandliklarni oldindan tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, yuk mashinasi haydovchisi tirband yo'llardan o'tish o'rniga eng qulay yo'nalishga yo'naltiriladi. Bu yoqilg'i sarfini kamaytiradi, yukni belgilangan manzilga o'z vaqtida yetkazib berishga yordam beradi va ekologik zararlarni kamaytiradi. Ayniqsa, shahar ichida yetkazib berish xizmatlari uchun bu texnologiya nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt transport vositalarining texnik holatini nazorat qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Har kuni yig'ilayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar - harorat, tebranish, quvvat sarfi, dvigatel ishlashi va boshqa ko'rsatkichlar asosida AI tizimlari texnik xizmat ko'rsatish vaqti yaqinlashganini oldindan bildiradi. Bu transport vositalarining ishdan chiqishini oldini olib, uzluksiz harakatni ta'minlaydi.

Yana bir muhim jihat - xavfsizlik. Sun'iy intellekt vositalari yordamida yo'l harakati xavfsizligi kuchaytirilmoqda. Kamera va sensorlar orqali yo'l holati, piyodalar harakati, boshqa transport vositalari bilan bo'lgan masofa nazorat qilinadi. Ayniqsa, avtonom avtomobillar rivojlanishida sun'iy intellekt markaziy rol o'ynaydi. Bu transport vositalari inson aralashuvisiz mustaqil ravishda harakatlanadi, atrofdagi holatni tahlil qiladi va kerakli qarorlarni qabul qiladi. Bu esa inson xatoliklarining kamayishiga olib keladi.

Logistika sohasida esa sun'iy intellekt yuklarni saralash, kuzatish va nazorat qilish bo'yicha sezilarli yordam beradi. Omborxonalarda AI asosidagi robotlar mahsulotlarni saralash, ularni kerakli joyga

¹ Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakul'teti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, i.f.f.d (PhD)

² Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi



joylashtirish va jo'natishga tayyorlash ishlarini amalga oshirmoqda. Bu inson mehnatini kamaytiradi, tezlik va aniqlikni oshiradi. Ayniqsa, katta hajmdagi mahsulotlar bilan ishlovchi kompaniyalar uchun bu texnologiyalar muhim bo'lib, yuklarni aniqlik bilan kuzatib borish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt mijozlar bilan ishlash jarayonida ham samarali yechimlar taklif qiladi. AI yordamida mijozlarga qachon, qanday yuk yetib kelishini oldindan ma'lum qilish, etkazib berishning har bir bosqichini real vaqt rejimida kuzatish, mijoz shikoyatlari yoki so'rovlariga tezkor javob berish imkoniyati yaratilgan. Bu esa mijoz ishonchini oshiradi va xizmat sifati yaxshilanishiga olib keladi.

Transport tizimining rejalashtirilgan modernizatsiyasida ham sun'iy intellekt muhim o'rin tutadi. Shaharlar yoki mamlakatlar darajasida yo'l infratuzilmasini rejalashtirishda AI texnologiyalari harakat oqimini, aholi zichligini, yo'lovchilar ehtiyojini hisobga olib, eng samarali transport tizimlarini yaratishga ko'maklashadi. Bunda transport vositalarining harakat grafigi, avtobuslar va metro qatnovlari sun'iy intellekt asosida optimallashtiriladi.

Hatto havo transporti, temiryo'l va dengiz logistikasi tizimlarida ham sun'iy intellekt keng qo'llanilmoqda. Havo kemalarining uchish va qo'nish vaqtlarini rejalashtirish, yuklarni havo yoki dengiz orqali eng qisqa yo'l bilan tashish, yuklarni joylashtirish va bojsiz hududlarda nazorat qilish kabi masalalarda AI texnologiyalari yirik aviakompaniyalar va transport tarmoqlari uchun asosiy vositaga aylangan.

Logistika zanjirida omborlar markaziy nuqtalardan biridir. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar mahsulotlarni avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va ularni tezkor topishni ta'minlaydi. Bu nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki xatoliklar sonini kamaytiradi. AI yordamida talab prognozlari tuziladi, bu esa ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan zaxiralar muammosining oldini oladi.

Yuk tashish jarayonlarining optimallashtirish: Yuk tashish - bu logistikaning harakatdagi qismini tashkil etadi. AI vositalari transport vositalarining holatini kuzatadi, texnik xizmat ko'rsatish vaqtini oldindan belgilaydi va transport vositalarini samarali taqsimlaydi. Bu esa transport xarajatlarini qisqartiradi, yo'l-transport hodisalari xavfini kamaytiradi hamda yetkazib berish muddatlarini aniq rejalashtirishga imkon yaratadi.

Ta'minot zanjirini boshqarishda SI imkoniyatlari: Sun'iy intellekt ta'minot zanjirini boshqarishda katta tahliliy imkoniyatlarga ega. AI algoritmlari talabni prognoz qiladi, yetkazib beruvchilar faoliyatini tahlil qiladi va optimal xarid rejalashtirishini amalga oshiradi. Bu orqali butun ta'minot zanjiri uzluksiz ishlaydi, resurslardan samarali foydalaniladi va mijozlar ehtiyojlari aniq va o'z vaqtida qondiriladi.

1-jadval Sun'iy intellekt yordamida logistika sohasida xarajatlarni qisqartirish


Usullari	Izohi
Yo'llarni optimallashtirish	- Yoqilg'i sarfi kamayadi. - Yetkazib berish vaqti qisqaradi. - Bo'sh yurishlar (yuk bo'lmagan holatda harakat) kamaytiriladi.
Zaxiralarni boshqarish (inventory management)	- Ortiqcha zaxiralar oldini oladi. - Talabga asoslangan xarid qilishga imkon beradi. - Ombor xarajatlarini kamaytiradi.
Predictive Maintenance (oldindan texnik xizmat)	- Kutilmagan nosozliklar kamayadi. - Texnik xizmat ko'rsatish rejalashtiriladi. - Qimmatbaho favqulodda ta'mirlardan qochiladi.
Ombor logistikasida avtomatlashtirish	- Robotlar va dronlar buyurtmalarni yig'ish va yetkazishda ishlatiladi. - Ombordagi ishchi kuchi xarajatlari kamayadi. - Xatoliklar kamayib, ishlov berish tezlashadi.
Talabni prognoz qilish	Rejalashtirish aniq bo'ladi,



	• Ortiqcha xarid va ishlab chiqarish kamayadi.
Yuklarni to'plash va yetkazib berishni optimallashtirish	• Yuk mashinalarining to'liq yuklanishini ta'minlaydi, • Bo'sh qaytishlarni kamaytiradi, • Yetkazib berish xarajatlari kamayadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining logistika tarmog'iga tatbiqi korxonalar uchun strategik ustunlik yaratadi. U xarajatlarni kamaytiradi, operatsion jarayonlarni tezlashtiradi va xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. Ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatishni shaxsiylashtirish, individual ehtiyojlarga mos yetkazib berish tizimlarini yo'lga qo'yish orqali SI logistika sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari logistikaning ajralmas qismiga aylanib, raqamli transformatsiyaning asosiy drayveri bo'lib qoladi.

Sun'iy intellektning logistika sohasida joriy etilishi zamonaviy tashish va taqsimot tizimlarida xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qilmoqda. Yo'llarni optimallashtirish, zaxiralarni aniq boshqarish, oldindan texnik xizmat ko'rsatish, ombor avtomatlashtirish va talabni prognoz qilish kabi yo'nalishlarda SI texnologiyalari samaradorlikni oshiradi va ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini oladi. Natijada, logistika jarayonlari tez, aniq va iqtisodiy jihatdan maqbul tarzda tashkil etiladi. Bu esa kompaniyalar raqobatbardoshligini kuchaytiradi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.



1-rasm.Amazonda SI orqali xavfsizlikni ta'minlash

Bizning fikrimizcha, raqamlik texnologiyalarga asoslangan yetkazib berish jarayonlarida sun'iy intellektidan foydalanish borasida xalqaro kompaniyalar amaliyotini o'rganish hamda undan foydalanish yuqori samara berishi mumkin. Jumladan, AQSHning ilg'or logistik kompaniyasi Amazon qariyb 25 yildan buyon SI va zamonaviy robot texnologiyalarni taminot zanjirlarini yaxshilashda qo'llab kelmoqda. Kompaniyaning rasmiy websaytida bayon qilinishicha 750 000 dan ortiq mahsus robot qurilmalar yuqori takrorlanishga ega vazifalarni bajarishda xodimlarga yordam beradi. Ushbu texnologiya yangi inventarlarni qabul qilish, saralash va ularni joylashtirish jarayonini 75% ga tezlashtirgan. Bu orqali Amazon, xaridorlar va sotuvchilarga qulaylik yaratish uchun, yangi mahsulotlarning ro'yxatini websaytga tezroq joylashtirishi mumkin.

Undan tashqari, omborlarda buyurtmalarni yig'ish va tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtning 25% ga qisqartirgan. Bu yetkazib berish markazlariga, bayram kunlari kunlik individual buyurtmalar bilan ishlash imkoniyatini 60 000 dan 110 000 ga oshirishga zamin yaratadi.

Amazon SI-ni katta samara bilan qo'llagan yana bir soha mahsulotlarni omborlardan mijozlarga yetkazishdir. SI kompaniyaning logistika tarmog'ini bir necha muhim usullar bilan optimallashtirishga imkon berdi, dinamik marshrutni rejalashtirish, SI yordamida Amazon transport sharoitlari, ob-havo va boshqa omillarga qarab real vaqt rejimida yetkazib berish yo'nalishlarini o'zgartirishi mumkin. Bu etkazib berish vaqtini va yoqilg'i xarajatlarini kamaytiradi va kompaniyaning barqarorlik maqsadlariga hissa qo'shadi.

2-jadval Amazonda yetkazib berish tezligining yillik o'zgarishi (2019–2024)³

Yil	O'rtacha yetkazib berish muddati (kun)	Asosiy texnologik yutuqlar
2019	2.5	An'anaviy logistika
2020	2.2	Pandemiya davrida logistika tizimining moslashuvi
2021	2.0	AI asosidagi talab prognozi joriy etildi
2022	1.7	Regionalizatsiya va AI yordamida inventar boshqaruvi
2023	1.4	Sequoia robotik tizimi va VAPR texnologiyasi
2024	1.0	AI asosidagi marshrut optimallashtirish va tezkor yetkazib berish tarmoqlari

2019-yildan 2024-yil oxirigacha bo'lgan davrda Amazon kompaniyasi sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'rtacha yetkazib berish vaqtini 2.5 kundan 1 kunga qisqartirishga erishdi. Bu deyarli 60% tezlashuv deganidir. Ayniqsa, 2022–2024-yillar oralig'ida bu jarayon keskin tezlashgani ko'rinmoqda - bunga omborlarni regionalizatsiya qilish, AI asosida talabni prognoz qilish, robotik tizimlar (Sequoia) va yetkazib berishdagi VAPR kabi ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi sabab bo'lgan.

Sun'iy intellekt yordamida Amazon logistika zanjirini optimallashtirib, mahsulotlarni mijozga yaqin hududlarda saqlashni yo'lga qo'ydi. Marshrutlar va trafik sharoitlari real vaqtda tahlil qilinib, haydovchilar uchun eng samarali yo'nalishlar tanlandi. Bu esa nafaqat tezlikni, balki xarajatlarni ham kamaytirishga olib keldi.

Umuman olganda, Amazon'ning yetkazib berish tizimidagi yillik o'sish sur'atlari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt kelajak logistikasi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda va bu kompaniyaga raqobatbardoshlikda katta ustunlik bermoqda.

Sun'iy intellekt (SI) zamonaviy logistika tizimining muhim transformatsiya omiliga aylanib bormoqda. An'anaviy usullarga nisbatan SI texnologiyalarining afzalligi nafaqat operatsion samaradorlikni

³ <https://stat.uz/uz/>



oshirishda, balki biznes modelini tubdan o'zgartirishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt yuk tashish, ombor boshqaruvi, talab prognozi, texnik xizmat, real vaqtli monitoring va marshrut optimallashtirish kabi muhim logistik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali nafaqat xarajatlarni kamaytirmoqda, balki mijozlar ehtiyojiga tez va aniq javob berish imkonini bermoqda.

Sun'iy intellektning asosiy kuchi katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) asosida tahlil olib borish, aniq prognozlar berish va real vaqtli qarorlar qabul qilish qobiliyatidadir. Masalan, Amazon kompaniyasi tomonidan joriy etilgan Sequoia robot tizimi va VAPR texnologiyasi kompaniyaga 2024-yil oxiriga kelib mahsulotlarni yetkazib berish muddatini 1 kungacha qisqartirishga yordam berdi. Bu kabi yechimlar mahsulot aylanish tezligini oshiribgina qolmay, iste'molchi qoniqishini ham maksimal darajada ta'minlaydi.

Shuningdek, AI yordamida amalga oshirilayotgan oldindan texnik xizmat tizimlari transport vositalarining ishdan chiqish holatlarini kamaytirib, xizmat ko'rsatish jarayonlarini rejalashtirishga yo'l ochmoqda. Bu, o'z navbatida, transport vositalarining ishlash samaradorligini oshirib, favqulodda to'xtashlarning oldini oladi.

Zaxiralarni boshqarishda esa SI tizimlari talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni doimiy ravishda kuzatib borish orqali kompaniyalarni ortiqcha zaxiradan, ombor to'lishidan yoki defitsit holatlaridan asraydi. Bu esa kapital aylanishini tezlashtirib, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning logistika sohasiga integratsiyalashuvi texnologik yutuqlarni amaliyotga samarali joriy etish orqali kompaniyalar uchun raqobat ustunligini ta'minlaydi. Bu jarayon global miqyosda logistika tizimining qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Kelajakda SI asosidagi "aqlli" logistika tizimlari butun ta'minot zanjirining uzluksizligini, ekologik barqarorligini va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, sun'iy intellektga sarmoya kiritish logistika sohasi uchun nafaqat dolzarb, balki strategik zaruratga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.



10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 4(37), 342-348.
16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RN. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 4(38), 187-191.
18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHEYNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 130-135.
20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 213-217.
23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 27, 27.
26. <https://stat.uz/uz/>
27. <https://lex.uz/uz/>

